

# "QISHLOQ MENING TAQDIRIMDA"- virtual ko'rik-tanlov loyihasiga marxamat!!!

**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti**

## **"QISHLOQ MENING TAQDIRIMDA"- virtual ko'rik-tanlov loyihasiga marxamat!!!**

Maqsad: Talabalarning institutda egallayotngan bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, milliy va diniy qadriyatlarni, jumladan, tug'ilib o'sgan qishloq kindik qoni to'kilgan joy ekanini talabalar ongiga singdirish, o'z qishlog'i bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish, qolaversa, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning oxirgi murojaatda bugun o'qish va ishlaridan ta'tilga chiqqan yoshlarmizning karantin davrida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qat'iy amal qilishlari va uy sharoitida masofadan turib bilim olishlari hamda ota-onalariga uy va tomorqa ishlarida yordamlashishlari borasida ta'kidlari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shish maqsadida talabalarning shaxsiy tomorqada ekinlarni ekish va daromad olish, imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish qobiliyatini aniqlash loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi.



Vazifa: Ayni kunlarda o'z hovlimiz, tomorqalarimizni tartibga keltirishimiz juda muhim. Qishloq sharoitida hovlidagi tomorqa qo'shimcha daromad manbai ekanini doimo yodda saqlagan holda, undan bir necha marotaba hosil olishga intilish, talabalarning o'z tomorqalarida olib borayotgan ishlari, qolaversa, ko'rik-tanlovning asosiy maqsadi talabalar tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlarni ekish va sug'orish ishida institutda olgan bilimlarining ahamiyati va samarasini ko'rsatib berishdan iborat.

### **Asosiy talablar:**

1. Qishloq tarixi, geografik joylashgan o'rni, tarixi an'analari va milliy urf-odatlari va respublikada tutgan o'rni haqida yoritilishi;
2. Qishloqdan yetishib chiqqan olimlar, shoirlar ijod ahli haqida ma'lumot berishi;
3. Qishloqning iqtisodiy salohiyati va innovatsion imkoniyatlari qanday ekani;
4. Qishloqda yetishtiriladigan asosiy qishloq-xo'jaligi mahsulotlarini ekish hamda sug'orish texnologiyalari bo'yicha ma'lumot berishi;
5. "Institutda egallagan bilimim o'z qishlog'imda samara bermoqda" mavzusi ostida talabalarning o'z tomorqalarida olib borayotgan ishlari hamda yetishtirayotgan mahsulotlarini ekish va sug'orish ishida institutda olgan bilimlarining ahamiyati va samarasini ko'rsatib berishi;.

Bajarish tartibi: Mazkur loyihani amalga oshirish ikki qismdan iborat:

1. Har bir talabaning o'z oilasi to'g'risidagi o'zi tomonidan bildirilgan fikrlari aks etgan videoresurs tayyorlashi. (5 daqiqagacha).
2. Taqdimot tayyorlash. (Talaba o'z oilasining turmush-tarzini, ota-onasining, aka-uka, opa-singillari hayotiy faoliyatini to'liq qamrab olgan matnli, ko'rgazmali tasvir: rasm, surat va illyustratsiyalar bilan bezatilgan, har bir rasmga izohlar berilgan al'bom - taqdimot tayyorlaydi. Ko'pi bilan 15 ta slayd) Talaba tomonidan tayyorlangan ishlanma ko'rsatilgan muddatga qadar tashkiliy guruhga taqdim etiladi.

### **Tashkiliy guruh a'zolari**

№ F.I.O. Lavozimi

- 1 Choriev R.K. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor, rais
- 2 Haydarov Z.R. Yoshlar bilan ishlash, ma'nnaviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, rais o'rinosari
- 3 Ismoilova Z.K. Pedagogika, psixologiya va fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, a'zo
- 4 Berdimurodov A. Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi, a'zo
- 5 Irisov F. Kasaba uyushmasi tashkiloti raisi, a'zo

**6 Barcha fakulitetlarning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovinlari**

**Baholash mezonlari**

№ Baholashmezonlari Maksimal ball (10 ball)

1. Taqdimot ishiga qo'yilgan asosiy talablarning to'g'ri bajarilganligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi 2
2. Mavzuning olib berilishi hamda undagi masalalarni hal qilishda talabaning mustaqil yondashuvi: ota-onalariga shaxsiy fikrlaridan iborat bo'lgan ta'riflarini, xalq maqollari, she'rlar va hayotiy misollar orqali olib berganligi 3
3. Oila a'zolarining hayoti va faoliyatini to'liq qamrab olgan matnli, ko'rgazmali tasvir: rasm, surat va illyustratsiyalar bilan bezatilganligi 3
4. Taqdimotda talabaning fikrlash qobiliyati, unda estetik didning mavjudligi, mavzu doirasida munozara olib borishi hamda nutq madaniyati darajasi 2

Jami ball 10

Talabalarning tomonidan topshirilgan ishlar tashkiliy guruh tomonidan ko'rib chiqiladi va eng yaxshi deb topilgan ishlar uchta o'rinni bo'yicha uch nafardan ya'ni, jami 9 nafar talabaning taqdimoti tanlab olinadi. Shuningdek, g'oliblikka munosib topilgan taqdimotlar institut rektori va jamoat tashkilotlari tomonidan qimmatbaho sovg'alar, pul mukofotlar va sertifikat bilan taqdirlanishadi.

**Ko'rik-tanlovda o'ringa loyiq topilgan talabalar quyidagicha rag'batlantiriladi:**

1-o'rinni (uchta) - 500 ming so'mdan;

2-o'rinni (uchta) - 400 ming so'mdan;

3-o'rinni (uchta) - 300 ming so'mdan;

Tanlovda institutimizda tahsil olayotgan barcha talabalar ishtirok etishi mumkin.

Ma'lumotlar taqdimot va videoresurs ko'rinishida 2020 yil 5 mayga qadar tashkiliy guruh elektron manziliga (hzurik@mail.ru) yoki +99890176-05-99 telegram raqamiga elektron shaklda yuboriladi. Murojaat uchun telefonlar: (93) 825-55-95, (99) 482-83-07